XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2024 - yil 29 - yanvar VI-82-20-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyatida issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 475-sonli qaroriga asosan hamda Surxondaryo viloyatida issiqlik ta‘minoti tizimini tubdan yaxshilash, aholini issiqlik energiyasi bilan uzluksiz va sifatli ta’minlash, shuningdek, issiqlik ta’minoti tizimini boshqarishda samarali va ilg‘or tajribalarni joriy etish maqsadida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. “Surxondaryo viloyati “Issiqlik manbayi” davlat unitar korxonasining viloyatdagi issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Surxondaryo viloyatida belgilangan issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar) ilovaga muvofiq ma’qullansin.

Bunda, issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ning aholi uchun belgilangan narxlari joriy kuz-qish mavsumida oshirilmaganligi inobatga olinsin.

3. “Surxondaryo viloyati “Issiqlik manbayi” davlat unitar korxonasi (Y.Mashiyev) tuman (shahar)larda aniq manzilli va muddatli reja-grafik asosida 2024-yil fevral-mart oylarida aholi o‘rtasida issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun onlayn to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha turli shakldagi seminarlar tashkil etsin va natijasi yuzasidan joriy yilning 1-aprel kuniga qadar xalq deputatlari

Surxondaryo viloyati Kengashiga yozma axborot kiritsin.

4. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), “Surxondaryo” viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun Surxondaryo viloyati hokimligiga yuborilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Djurayeva) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.R.Choriyev**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2024-yil 29-yanvardagi
VI-82-20-8-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida belgilangan issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun

TARIFLAR (NARXLAR)

T/R	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Ma’qullangan narx
1	Markaziy issiqlik energiyasi aholi uchun	1 m^2 oyiga	1049
2	Issiq suv aholi uchun hisoblagichsiz	1 kishi oyiga	9147,6
3	Issiq suv aholi uchun hisoblagich bilan	1 m^3 issiq suv	2795,0
4	Yuridik tashkilotlar uchun issiqlik energiyasi	1 Gkal	168291,4